



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QURILISH ATAMALARINING UMUMIY LEKSIK TASNIFI

Sobirov Otabek Qodirovich

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada chog‘ishtirilayotgan tillarda atamalarining nomlanishi hamda turar-joy binolarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash masalalari ilmiy tahlil qilingan. Bugungi kunda qurilish atamalarining xususiyatlarini tasniflash har ikkala tilda ham turar-joy binolarini bir-biridan ajratish, ularning funksional vazifasi va maqsadini o‘rganishning muhim tadqiqot obyektlaridan biri ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, qurilish va me‘morchilikka oid terminlarning semantik hamda konseptual jihatlarini yoritiladi.

Kalit so‘zlar: inshoot, ierarxik, konseptual, semantik xususiyat, binolar, leksema, me‘moriy.

ОБЩАЯ ЛЕКСИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ КОНСТРУКТИВНЫХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Собиров Отабек Кодирович

Кокандский университет, Андижанский филиал, доцент (PhD)

Аннотация

В статье научно анализируются вопросы наименования терминов в сопоставляемых языках и определения специфических особенностей жилых зданий. Обосновывается, что классификация строительных терминов в обоих языках является одним из важных объектов исследования, позволяющих различать жилые здания, а также изучать их функциональное назначение и цели. Кроме того, рассматриваются семантические и концептуальные аспекты терминов, связанных со строительством и архитектурой.

Ключевые слова: сооружение, иерархический, концептуальный, семантическая особенность, здания, лексема, архитектурный.

GENERAL LEXICAL CLASSIFICATION OF CONSTRUCTION TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Sobirov Otabek Qodirovich

Kokand University, Andijan Branch, Associate Professor (PhD)

Abstract

The article provides a scientific analysis of the naming of terms in the compared languages and the identification of the specific characteristics of residential buildings. It substantiates that the classification of construction terminology in both languages is an important object of research for distinguishing residential buildings and studying their functional purpose and objectives. In addition, the semantic and conceptual aspects of construction and architectural terms are examined.

Keywords: structure, hierarchical, conceptual, semantic feature, buildings, lexeme, architectural.

Tadqiqotimizda olib borilgan tematik tasnif umumiy qurilish terminologiyasini qamrab olsa-da, asosiy e‘tibor turar-joy va fuqarolik binolarini qurishda qo‘llaniladigan atamalar hamda ularning ishlab chiqarish texnologiyasiga qaratildi. Qurilish terminlarini o‘rganishda leksemalarning ierarxik munosabatlari, qurilish sohasidagi tushunchalar, jarayonlar, hodisalar va obyektlar bilan bog‘liq semantik aloqalari asosiy tadqiqot manbai sifatida qaraladi. Qurilish sanoati terminlarini tahlil qilish ushbu sohadagi terminlar o‘rtasidagi murakkab ma‘no munosabatlarini hamda ularning tizimli ierarxiyasini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, qurilish terminologiyasi leksik-tematik tizim sifatida talqin qilinib, uning tarkibiy qismlari kichik semantik guruhlariga ajratilgan holda qiyosiy jihatdan tavsiflandi.

Tadqiqot davomida qurilish terminlari quyidagi asosiy guruhlariga ajratildi:

1. Tushunchalarni ifodalovchi va funksional xususiyatga ega atamalar.
2. Ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llaniladigan terminlar guruhi.

Qurilish inshootlari terminlari qurilish ishlarini tashkil etish texnologiyasi va ishlab chiqarish jarayonlariga oid ierarxik munosabatlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu guruh qurilish sanoatining alohida bo‘limlariga xos konseptual kategoriyalarni ifodalaydi. Inshootlarni bildiruvchi terminlar orqali

binolar, texnik obyektlar va ularning funksional qismlari nomlanadi. Bunda har bir inshootning vazifasi va texnologik jihatdan ajralib turuvchi komponentlari semantik jihatdan farqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Qurilish ishlab chiqarishida qoʻllaniladigan terminlar qurilish ishlarini tashkil etish, texnologik operatsiyalar va ishlab chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bogʻliqdir. Ushbu terminlar qurilish materiallari, asbob-uskunalar, texnologiyalar va ish jarayonlarini ifodalaydi. Shu orqali qurilish ishlarining bajarilish tartibi va texnologik bosqichlari tavsiflanadi. Mazkur guruhga oid terminlar qurilish ishlab chiqarishini optimallashtirish hamda texnik jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. Qurilish terminlari tuzilish jihatidan turlicha boʻlib, ular aniq obyekt va jarayonlarni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilida *building, edifice, house, housing, workshop, boiler-room, barn, pontoon bridge, tower, ferry, saw-mill, clubhouse, room* kabi terminlar qoʻllansa, oʻzbek tilida ularga *qurilish inshooti, xona, hujra, sartaroshxona, kasalxona, mehmonxona, oshxona, doʻkon, stadion, amfiteatr, koʻprik, zinapoya, sihatgoh, zavod* kabi birliklar mos keladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasiga oid terminlar ham alohida guruhni tashkil etadi. Jumladan:

- *earth works* — tuproq ishlari;
- *boring and blasting works* — burgʻulash va portlatish ishlari;
- *pile works* — qoziq ishlari;
- *timber works* — yogʻoch ishlari;
- *concrete and reinforced concrete works* — beton va temir-beton ishlari;
- *installation building construction* — qurilish inshootlarini oʻrnatish ishlari.

Mazkur misollar qurilish terminologiyasini turli semantik va funksional guruhlariga ajratish imkonini beradi. Ayniqsa, fuqarolik binolarining tarkibiy qismlarini ifodalovchi ikkilamchi terminlar keng qoʻllanishi bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida qurilish inshootlari, qurilish asboblari, materiallar hamda binolarning tarkibiy qismlarini ifodalovchi terminlar qiyosiy jihatdan oʻrganildi. Qurilish terminlarining umumiy semantik xususiyatlari differensial formula asosida “obyekt + qurilish” hamda “structure” semalari orqali tavsiflandi. Bunda “qurilish” termini polisemantik xususiyatga ega boʻlib, nafaqat bino va inshootlarni, balki “pudrat” va “qurilish faoliyati” maʼnolarini ham ifodalaydi. Shu sababli mazkur termin texnik binolar, koʻpriklar, toʻgʻonlar, galereyalar kabi muhandislik inshootlarini ham qamrab oluvchi umumiy semantik maydon sifatida namoyon boʻladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotimizda “qurilish” atamasi qurilish inshootlarining turlari va xususiyatlarini tavsiflashda qoʻllaniladigan tushunchalar hamda voqeliklar oʻrtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi keng semantik maydon sifatida talqin qilindi. Ushbu tushuncha bir nechta leksik va mavzu guruhlarini oʻz ichiga oladi. Avvalo, qurilish terminlari “texnik” va “texnik boʻlmagan” tuzilmalar kabi semantik guruhlariga ajratildi. Bu esa muhandislik inshootlari, binolar turlari hamda ularning funksional va strukturaviy belgilarini ifodalovchi atamalarni tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi. “Muhandislik inshootlari” guruhiga toʻgʻon, galereya, gaz quvuri, yer osti tuneli, shaxta, irrigatsiya tizimlari, aeroport, angar kabi atamalar kiradi. Ingliz tilidagi *pier, mast, tower, subway, tube, reservoir, canal, irrigation canal, hydroelectric power station, port, seaport, airfield, aerodrome, airport building, hangar, shed* kabi birliklar ham mazkur semantik maydonni tashkil etadi. Ushbu atamalar texnik va muhandislik faoliyati bilan bogʻliq obyektlarni ifodalashi bilan xarakterlanadi. Texnik boʻlmagan tuzilmalarni ifodalovchi atamalar esa “qurilish” va “bino” tushunchalarining qarama-qarshiligi asosida tavsiflanadi. Bu qarama-qarshilik atamalarni differensial semantik belgilari asosida ierarxik jihatdan ajratishga imkon beradi. Ingliz va oʻzbek tillaridagi “bino” atamasi semantik jihatdan *bino, imorat, xona, building, edifice, construction, house* kabi umumlashtiruvchi maʼnolar orqali ifodalanadi. Maʼlumki, har bir sohada qoʻllaniladigan leksemalar inson hayoti va faoliyati bilan bogʻliq turli tushunchalarni oʻzida mujassamlashtiradi. Qurilish terminologiyasida ham inson omiliga bevosita daxldor boʻlgan atamalar mavjud. Jumladan: saroy, bino, uy, kvartira, yer uy, mehmonxona, zavod, tovuqxona, restoran, temiryoʻl stansiyasi, dorixona, koʻp qavatli bino kabi birliklar shular jumlasidandir. Ingliz tilida esa ularga *construction, room, dug-out, court, poultry farm, poultry house, sitting-room, restaurant, pier, weir, policlinic* va boshqa birliklar mos keladi. “Bino va uning turlari” differensial tasniflash xususiyati ushbu atamalarni leksik-semantik munosabatlar asosida birlashtiradi hamda qurilish sohasi terminlari va tushunchalari oʻrtasidagi kategorik aloqalarni aks ettiradi. Qurilish terminlari oʻrtasidagi munosabatlar asosan quyidagi mezonlar asosida shakllanadi:

1. Qurilish obyektlarining funksional maqsadini bildiruvchi atamalar.
 2. Qurilish obyektlarining sifat va dizayn xususiyatlarini ifodalovchi atamalar.
- Funksional maqsadga koʻra tasniflangan atamalar quyidagi asosiy guruhlariga boʻlinadi:

1. Fuqarolik binolarini bildiruvchi atamalar: yotoqxona, lager, sirk, uy, kutubxona, sartaroshxona, kasalxona, hammom, dorixona va boshqalar. Ingliz tilida: *block-house, dining room, mess room, building, palace, civil building, castle, mud-house, cabin, cottage, detached-house, private residence, domestic building*.

2. Sanoat va qishloq xo'jaligi binolarini bildiruvchi atamalar: zavod, fabrika, ustaxona, korxonalar, sement zavodi, paxta zavodi, garaj, omborxonalar, molxonalar, otxona, ferma va boshqalar. Ingliz tilida: *works, factory, plant, brickfield, boiler-room, workshop, greenhouse, dairy farm, farm, forcing bed*.

Mazkur guruhlar qurilish terminlarining funksional maqsad asosida tasniflanishini ko'rsatadi va ularning miqdoriy hamda sifat jihatdan eng keng tarqalgan kichik guruhlardan iborat ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu terminlarni boshqa guruhlardan farqlovchi asosiy semantik belgi ularning umumiy ma'nosini ifodalovchi konseptual atama bilan belgilanadi. Xususan, "fuqarolik binosi" (*civil building*) atamasi terminologik tizimning asosiy konseptual markazini tashkil etadi. Kichik guruh atamalarining konseptual munosabatlarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ularni birlashtiruvchi asosiy semantik komponent "vazifa" va "maqsad" semalaridir. Masalan: yotoqxona, kinoteatr binosi, sirk binosi, ko'rgazma binosi, pansionat binosi, dam olish xonasi, choyxona, konsert zali, sport zali, mehmonxonalar va turar-joy binolari funksional maqsad asosida bir semantik guruhga birlashadi. "Funksiya" va "maqsad" semantik belgisi ayniqsa quyidagi atamalarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- uy — maishiy yashash uchun mo'ljallangan bino;
- kinoteatr — film namoyishi uchun mo'ljallangan bino;
- pansionat — yashash va xizmat ko'rsatish funksiyalarini birlashtiruvchi mehmonxonalar turi;
- mehmonxonalar — vaqtincha yashash uchun jihozlangan bino.

Demak, qurilish terminologiyasi nafaqat obyektlarning nomlanishini, balki ularning funksional, semantik va konseptual xususiyatlarini ham ifodalaydi. Bu esa terminlar tizimini lingvosemantik va kognitiv jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, semantik tahlil ushbu kichik turdagi barcha atamalarning "turar joy" va "turar joy bo'lmagan" ma'nolarini ochib beradi. Masalan, turar-joy binolariga oid leksemalar sifatida uy-joy, sihatgoh, xona, ijara uyi, uy, mehmonxonalar, hovli kabi birliklarni keltirish mumkin. Shuningdek, ombor, oshxonalar, dorixona, bozor, universitet, kollej, korxonalar, maktab kabi leksemalar ham bino tushunchasi bilan bog'liq bo'lsa-da, ular funksional jihatdan jamoat yoki noturar-joy binolarini ifodalaydi. Birinchi qatorning har bir so'zi semantik jihatdan "uy-joy", "turar joy" degan umumiy xususiyatni bildiradi, ikkinchi qator esa "muayyan faoliyatni amalga oshirish maqsadi" (o'qish, ishlash, xizmat ko'rsatish va hokazo) semantik belgisi asosida birlashadi. Demak, birinchi guruh turar-joy binolari va ularning qismlarini, ikkinchi guruh esa jamoat binolarini ifodalaydi.

"Bino + turar-joy binosi + maqsad + jamoat" differensial semantik xususiyati "bino + fuqarolik" tipik differensial xususiyatiga nisbatan subspezifik xarakterga ega bo'lib, ushbu kichik tipni semantik jihatdan ikki asosiy guruhga ajratadi. "Bino + turar-joy" guruhidagi atamalar o'zaro semantik bog'lanib, umumiy holda "uy-joy", "turar joy", "mehmonxonalar", "yashash joyi", "makon", "uy", "manzil" kabi birliklar bilan ifodalanadi. Ushbu so'zlarning semantik tarkibida "turar joy" va "yashash joyi" ma'nolari asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, "joy", "makon", "manzil" kabi birliklarda korrelyativ semantik ma'no ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zbek tilidagi "-goh" qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan birliklar "joy", "manzil", "yashash makoni" ma'nolarini ifodalovchi otlarni shakllantiradi.

O'zbek tilida "xonalar" leksemasi "yashash joyi" tushunchasini ifodalovchi asosiy yadro birlik hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, qiyoslanayotgan tillarda turar-joy binolarini qurilish materiallari asosida tavsiflovchi atamalarni quyidagi guruhlarga ajratdik:

1. Yog'och materialidan qurilgan uylar: ingliz tilida — *tent, marquee, block-house, log-house, ready-cut house, cabin, hut, shack, peasant house*; o'zbek tilida — yog'och uy, chodir, hujra, masjid, chaft (tarixiy).

2. Loy va tuproq materiallari asosida qurilgan uylar: ingliz tilida — *adobe, cob-house, clay-walled cottage, wattle-house*; o'zbek tilida — paxsa uy, shuvoq uy, paxsa devor, loy devorli kotej.

3. Panel va beton materiallari asosida qurilgan uylar: ingliz tilida — *precast concrete house, concrete building*;

o'zbek tilida — beton uy, temir-beton uy, katta bino, tosh bino.

4. Tosh materialidan qurilgan uylar: ingliz tilida — *stone building, granite building, marble building*; o'zbek tilida — tosh bino, granit bino, marmar bino.

Yuqoridagi qurilish atamaları doirasidagi ayrim tushunchalarni ifodalashda qiyoslanayotgan

tillar o'rtasidagi munosabatlar ba'zan iqtisodiy va madaniy omillar bilan ham bog'liq bo'ladi. Shu sababli ayrim terminlarning tarjimai yoki ularga aynan mos ekvivalent topish qiyinchilik tug'diradi.

Tabiiy geografik muhit ham qurilish materiallari tanloviga ta'sir ko'rsatadi. Bu holat ikki tildagi atamalarining semantik nisbatida aks etadi. Masalan, *adobe* atamasi ingliz tilida ko'proq loydan qurilgan kulba yoki uylarni bildiradi, o'zbek tilida esa "paxsa uy" yoki "loy uy" ma'nolariga yaqin keladi. Demak, terminlarning semantik qamrovi har ikki tilda ham to'liq mos tushavermaydi.

Qiyoslanayotgan tillarda turar-joy binolarini bildiruvchi atamalar orasida eng katta guruh binoning qismlarini ifodalovchi birliklardan tashkil topadi. Masalan: o'zbek tilida — *podval*, *daxliz*, *bolaxona*, *ayvon*, *pehayvon*; ingliz tilida — *attic*, *antechamber*, *anteroom*, *drying-room*, *retiring-room* va boshqalar.

Ushbu misollar turar-joy binosining insonning kundalik hayot faoliyatini ta'minlovchi, dam olishi va ishlashi uchun xizmat qiluvchi ko'p funksiyali qismlar tizimidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Qurilish atamalarini o'rganish har bir xalqning dunyoqarashi, madaniyati, urf-odati va ijtimoiy kelib chiqishini aks ettiradi. Shu sababli qiyoslanayotgan tillarda atamalar tarkibida muayyan farqlar yuzaga keladi.

Ingliz va o'zbek tillarida uy qismlarini ifodalovchi leksemalarni guruhlariga ajratishda ikkilamchi semantik shakllanishlar ham kuzatiladi. Ushbu birliklar "turar joy" va "noturar joy" kabi ikki kichik guruhga bo'linadi.

Uy qismlarini bildiruvchi atamalar o'rtasidagi semantik munosabatlar shuni ko'rsatadiki, umumiy belgilar jihatidan ikki til o'xshash bo'lsa-da, me'moriy xususiyatlar va turar-joy binolarining funksional qismlari tufayli sezilarli tafovutlar mavjud. Ushbu farqlar har bir tilning o'ziga xos strukturaviy va funksional tizimidan kelib chiqadi. Biroq binoning funksional qismlari jihatidan ular orasida umumiylik ham mavjud. Masalan:

ingliz tilida — *entrance*, *staircase*, *verandah*, *mud room*, *antechamber*, *bathroom*, *kitchen*, *bedroom*, *roof*, *cellar*, *toilet*, *annex*, *children's room*;

o'zbek tilida — *zinapoya*, *ayvon*, *pehayvon*, *balkon*, *bolaxona*, *yarim balkon*, *koridor*, *daxliz*, *zal*, *bolalar xonasi*, *hammom*, *oshxona*, *yotoqxona*, *tom*, *podval*, *qo'shimcha bino*.

Qiyoslanayotgan tillarda ayrim leksemalarning ma'no jihatidan farqli yoki zid holatlari ham kuzatiladi. Masalan, ingliz va o'zbek tillaridagi "kirish" tushunchasi *adit*, *porch*, *doorway* — kirish, yo'lak, eshik kabi birliklar orqali ifodalanadi. Adabiy tilda esa ushbu birlik "ostona" ma'nosida ham qo'llanadi. "Yo'lak", "koridor", "ayvon", "eshik" leksemalari hamda ularning ingliz tilidagi *corridor*, *passage* ekvivalentlari uy yoki binoning boshqa qismlariga o'tishni ta'minlovchi bog'lovchi qismlarni bildiradi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida *zinapoya* tushunchasini ifodalashda ayrim o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi kuzatildi. Bu farqlar ayniqsa ko'p qavatli turar-joy binolaridagi *zinapoya* tizimlariga ham tegishlidir. O'zbek tilida "pillapoya", "zina", "zinapoya", "pog'ona" kabi leksemalar qo'llansa, ingliz tilida ular *main staircase* ("asosiy zinapoya"), *front staircase* ("oldi zinapoya") hamda *back staircase* ("orqa yoki yordamchi zinapoya") kabi birliklar orqali ifodalanadi. Ko'rinib turibdiki, "pog'ona" leksemasi ingliz tilidagi *stair* tushunchasiga mos keladi. O'zbek tilidagi "pillapoya", "zina", "zinapoya", "pog'ona" leksemalari ingliz tilidagi *stair*, *staircase*, *corridor*, *passage* birliklari bilan qiyoslanganda, ular orasida sezilarli semantik va funksional tafovutlar mavjudligi aniqlanadi. Ushbu farqlar obyektning shakli, joylashuvi va funksional vazifasi bilan bog'liq bo'lib, nutq mazmunining shakllanishiga ta'sir qiladi. Yana bir muhim leksema sifatida o'zbek tilidagi "mehmonxona" atamasini ko'rib chiqish mumkin. Ushbu birlik ingliz tilidagi *drawing-room*, *sitting-room*, *parlour*, *reception-room*, *guest-room*, *guest-chamber* kabi bir nechta leksemalarga mos keladi. Biroq bu so'zlarning har biri o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega. Masalan, *guest-room* va *guest-chamber* o'zbek tilidagi "mehmonlar uchun mo'ljallangan xona" ma'nosini anglatadi. *Sitting-room* va *parlour* oddiy, ortiqcha dabdabasiz mehmonxona ma'nosida qo'llanadi. *Living-room* kundalik foydalaniladigan umumiy yashash xonasi ma'nosini bildiradi. *Reception-room* va *drawing-room* esa dabdabali, bezatilgan mehmonxona, asosan zodagonlar yoki yuqori tabaqa vakillari uchun mo'ljallangan xona ma'nosini anglatadi. Ayniqsa, *drawing-room* leksemasi tasviriy san'at asarlari, haykallar yoki landshaft elementlari bilan bezatilganligi bilan ajralib turadi. Demak, o'zbek tilidagi "mehmonxona" leksemasi ingliz tilidagi yuqoridagi birliklarning umumlashgan semantik ma'nosini ifodalaydi.

Ingliz tilida "oshxona" tushunchasini ifodalovchi leksemalar ham sezilarli darajada differensial xususiyatlarga ega. Masalan:

1. *Dining-room* — umumiy ovqatlanish xonasi;

2. *Breakfast-room* — faqat nonushta qilish uchun mo'ljallangan xona;
3. *Recreation-room* — dam olish yoki sayohat vaqtida foydalaniladigan ovqatlanish joyi.

Bundan tashqari, ingliz tilida muassasalarga xos maxsus ovqatlanish binolarini bildiruvchi birliklar ham mavjud:

- *dining-hall, mess* — ta'lim muassasalari oshxonasi;
- *mess-room* — harbiy qismlardagi askarlar oshxonasi;
- *cook-shop, eating-house* — shahardagi oshxona yoki kafe;
- *grill-room* — asosan parranda mahsulotlariga ixtisoslashgan oshxona;
- *pub* — ichimlik va yegulik iste'mol qilinadigan joy.

Ushbu birliklarning barchasi umumiy holda *dining-room* tushunchasi bilan bog'lanadi.

Mazkur xususiyatlar har bir tematik guruhni ushbu turning bir qismi sifatida alohida tavsiflash imkonini beradi. Quyidagi tematik guruhlar buning yaqqol namunasi hisoblanadi:

1. Ta'lim muassasalari binolari: o'zbek tilida — maktab, institut, universitet; ingliz tilida — *school, institute, university*.
2. Tibbiyot va sog'liqni saqlash muassasalari: o'zbek tilida — kasalxona, boshpana, tug'ruqxona, muolajaxona, klinika, sanatoriy, dorixona; ingliz tilida — *hospital, maternity hospital, polyclinic, nursing-home, drug-store* va boshqalar.
3. Madaniyat muassasalari: o'zbek tilida — kutubxona, madaniyat saroyi, teatr, kinozal; ingliz tilida — *library, pavilion, museum, reading-room*.
4. Sport inshootlari: o'zbek tilida — stadion, arena, sport zali, suzish havzasi; ingliz tilida — *stadium, sport hall, pool, hippodrome*.
5. Savdo va biznes muassasalari: o'zbek tilida — do'kon, bozor, butik, kitob do'koni; ingliz tilida — *market, kiosk, booth, bookstall, market-building*.
6. Mehmon va ijaraga mo'ljallangan binolar: o'zbek tilida — mehmonxona, qasr, saroy; ingliz tilida — *hotel, inn, boarding-house*.
7. Davlat va xizmat ko'rsatish binolari: o'zbek tilida — sartaroshxona, ustaxona, poyabzal ta'mirlash ustaxonasi; ingliz tilida — *hairdresser's, workshop, shoe repair shop*.
8. Sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari: o'zbek tilida — zavod, sement zavodi, ferma, issiqxona, ombor; ingliz tilida — *factory, cement works, greenhouse, dairy farm, garage* va boshqalar.

Yuqoridagi guruhlar turar-joy binolaridan farq qilsa-da, ayrim binolar nomlari kundalik nutqda turar-joy binolari nomlari bilan ham qo'llanishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik va turar-joy binolarini nomlashda qo'llaniladigan atamalar tizimi tahlil qilindi. Umumiy semantik tahlil terminologik tizimdagi voqeliklar hamda ularning leksik-semantik munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi. Shuningdek, qiyoslanayotgan tillardagi leksemalarning shakllanish tarixi, uy qurish bilan bog'liq madaniy an'analar hamda turar-joy binolari me'morchiligidagi o'ziga xos jihatlar xalqlar o'rtasidagi farqlarni aks ettirishi aniqlandi. Noturar-joy binolariga oid terminlar inson hayotining ijtimoiy, madaniy va kundalik faoliyati bilan bog'liq bino atamalarini o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi atamalarning semantik assotsiatsiyasi shuni ko'rsatadiki, ularning asosiy bog'lovchi xususiyati tematik birlik va funksional maqsad ma'nosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Safarov Sh. Semantics. – T., 2013. – 340 p.
2. Крысин Л. П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Эксмо, 2010. – 944 с.
3. Sobirov A. Researching the Lexical Level of the Uzbek Language Based on the Principle of the System of Systems. – T.: Ma'naviyat, 2004.
4. Hornby A. S. Oxford Advanced Learner's Dictionary / ed. by Sally Wehmeier. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – P. 581–583.
5. Webster's Third New International Dictionary of the English Language. – Könnemann, 1993.
6. Kandelaki T. L. Semantics and Motivation Terms. – M.: Nauka, 1977. – 7 p.
7. Реформатский А. А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М.: Наука, 1986. – С. 11.
8. Cambridge Advanced Learner's Dictionary. – Oxford: Oxford Publishing House, 2006. – 1129 p.
9. Saloydinova N. Arxitektura-qurilish terminlarining leksik-semantik xususiyatlari: filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – B. 55.
10. G'ofurova N. O'zbek, ingliz va rus tillarida qurilish sohasi terminlari tarjimai masalalari: filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2017. – B. 151.